

ANJUMAN | KONFERENCLAR | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

ERNEST XEMINGUEY

(1899-1961)

Chol qushlar va ayniqsa, belinim oziq
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon
uni topolmaydigan jumlil va nozik dengiz
qaldirg'ochlariga achiqib ketar va qushlar
turmushi, qirin-qora va katta, kuchli
qushlarni hisobga olmayanda, buning kun
kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir.
Okean gohida shu qadar ham beshim dollar
ekan, nima uchun qushlarni mana bu
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va
go'zal, ammo u go'ho to'xtatdan shunday
shaf-qatsiz bolib ketadiki, uning ustidagi
oziq dindagi chary urib chonib, oziq va
mangli ovoz bilan bir-birlariga jo' bolib
uchgan bu qushlar unga nisbatan
beshinoya zalf va mo'ri ko'rinadi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI

AVGUST

№43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
16-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-16**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-16**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Eshchanova Sanobar	
TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	7
2. Гойибова Шоира	
ДАРС ЖАРАЁНИДА “ИШБОП ЎЙИНИ” МЕТОДИНИ ҚЎЛЛАШ	9
3. Ibraximova Umida Matnazarovna	
LOY VA PLASTILIN BILAN ISHLASH DARSLARI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	11



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Eshchanova Sanobar,

Xorazm viloyati Shovot tumani

18-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya darslarining ahamiyati va texnologiya darslarida interfaol usullardan foydalanish haqida so'z boradi

Kalitso'zlar: texnologiya, texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim, metod, interfaol ta'lim metodlari

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz sizga hayotda, doimo ko'makchi bo'ladi.

Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Haqiqatdan ham, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi –bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi. Innovatsion metodlar o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. O'qituvchi insoniyat tajribasida to'plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo'lmagan bolaning ongi o'rtasida vositachilik rolini o'naydi. Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini ta'lim olmasdan, o'qituvchisiz, mustaqil holda o'zi tizimli tarzda o'zlashtira olmaydi albatta. O'qituvchining eng katta xizmati o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan yo'l, usullarini belgilashda namoyon bo'ladi. Dars jarayonining metodi o'quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari o'qituvchining o'quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog'liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga o'qituvchining ish usullari va o'quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir. Pedagogik metodlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq holda bo'ladi. Ta'lim metodlari tevarak-olamgi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, y'ani ular falsafiy fikrlarni, ta'lim jarayonining mohiyati va tamoyillarini to'g'ri anglashga yordam beradi. Innovatsion metodlar o'quv materiali mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liq holda bo'ladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati mahsuli bo'lib, eng avvalo o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va h.k. “Tarmoqlar” metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. “3×4” metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli



g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan metod. “Skarabey” interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ” ochiq ifodalashni shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Xulosa qilib aytganda: Haqiqiy ustoz o'quvchiga faqat bilim emas, balki fikrlashni ham o'rgatadi. O'quvchining bilimi erishgan yutug'i ustoz mehnatining mahsuli hisoblanadi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'lib, zerikib qolmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. ziyonet.uz



ДАРС ЖАРАЁНИДА “ИШБОП ЎЙИНИ” МЕТОДИНИ ҚЎЛЛАШ

Гойибова Шоира

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 35-сон

мактаби технология фани ўқитувчиси

Тел + 99-899-964-33-96


[shoirag`oyibova@gmail.com](mailto:shoirag`oyibova@gmail.com)

Аннотация: Ушбу мақолада ишбоп ўйини методи орқали таълим олувчилар берилган мавзу бўйича ўзларининг билимларини қисқа ва аниқ ифода эта олишлари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Ўқитиш, фаоллаштириш, таълим олувчи, анъанавий.

“Ишбоп ўйин” методи - берилган топшириқларга кўра ёки ўйин иштирокчилари томонидан тайёрланган ҳар хил вазиятдаги бошқарувчилик қарорларини қабул қилишни имитация қилиш (таклид, акс эттириш) методи ҳисобланади.

Ўйин фаолияти бирон бир ташкилот вакили сифатида иштирок этаётган иштирокчининг ҳуқ-атвори ва ижтимоий вазифаларини имитация қилиш орқали берилади. Бир томондан ўйин назорат қилинса, иккинчи томондан оралиқ натижаларга кўра иштирокчилар ўз фаолиятларини ўзгартириш имкониятига ҳам эга бўлади. Ишбоп ўйинда роллар ва ролларнинг мақсади аралашган ҳолда бўлади. Иштирокчиларнинг бир қисми қатъий белгиланган ва ўйин давомида ўзгармас ролни ижро этишлари лозим. Бир қисм иштирокчилар ролларини шахсий тажрибалари ва билимлари асосида ўз мақсадларини белгилайдилар. Ишбоп ўйинда ҳар бир иштирокчи алоҳида ролли мақсадни бажариши керак. Шунинг учун вазифани бажариш жараёни индивидуал-гуруҳли ҳарактерга эга. Ҳар бир иштирокчи аввал ўзининг вазифаси бўйича қарор қабул қилади, сўнгра гуруҳ билан маслаҳатлашади. Ўйин якунида ҳар бир иштирокчи ва гуруҳ эришган натижаларига қараб баҳоланади.



“Ишбоп ўйин” методининг босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Таълим берувчи мавзу танлайди, мақсад ва натижаларни аниқлайди. Қатнашчилар учун йўриқномалар ва баҳолаш мезонларини ишлаб чиқади.
2. Таълим олувчиларни ўйиннинг мақсади, шартлари ва натижаларни баҳолаш мезонлари билан таништиради.
3. Таълим олувчиларга вазифаларни тақсимлайди, маслаҳатлар беради.
4. Таълим олувчилар ўз роллари бўйича тайёргарлик кўрадилар.
5. Таълим олувчилар тасдиқланган шартларга биноан ўйинни амалга оширадилар.



Таълим берувчи ўйин жараёнига аралашмасдан кузатади.

6. Ўйин якунида таълим берувчи муҳокамани ташкил этади. Экспертларнинг хулосалари тингланади, фикр-мулоҳазалар айтилади.

7. Ишлаб чиқилган баҳолаш мезонлари асосида натижалар баҳоланади.

Ҳар бир ролни ижро этувчи ўз вазифасини тўғри бажариши, берилган вазиятда ўзини қандай тутиши кераклигини намойиш эта олиши, муаммоли ҳолатлардан чиқиб кетиш қобилиятини кўрсата олиши керак.

“Ишбоп ўйин” методининг афзалликлари:

- таълим олувчиларнинг билимларини ва тажрибаларини ўз қарашлари ва ҳулқлари орқали ифода этишга ёрдам беради;

- таълим олувчининг бошланғич билимлари ва тажрибаларини сафарбар этиш учун яхши имконият яратилади;

- таълим олувчилар ўз билимлари доирасидан келиб чиққан ҳолда имкониятларини намойиш этишлари учун шароит яратилади.

“Ишбоп ўйин” методининг камчиликлари:

- таълим берувчидан катта тайёргарликни талаб этади;

- вақт кўп сарфланади;

- танланган мавзу таълим олувчининг билим даражасига мос келиши талаб этилади;

- таълим олувчининг ҳис-ҳаяжони тўғри қарор қабул қилишга ҳалакит бериши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



LOY VA PLASTILIN BILAN ISHLASH DARSLARI TASHKIL ETISH METODIKASI

Ibraximova Umida Matnazarovna
Xorazm vil, Bog'ot tumani 6-maktab
texnologiya fani o'qituvchisi
Telefon: +998 93 928 58 88

Annotatsiya: Maqolada loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qaxromonlari yasash, shungdek loy, plastilin haqida ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Plastilin va loydan tashqari mumdan foydalanish to'g'risida maumotlar ham bor.

Kalit so'zlar: Neft, glitserin, plastilin, mum, loy, o'yinchoqlar, dekorativ sahna, shirali va shirasiz loy tarkibi.

Boshlang'ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har bir o'qituvchidan mazkur soha bo'yicha mahlum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustlarida ko'proq ishlashlari, xaykaltaroshlik va sapoldo'zlik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi.

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli uyinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qaxromonlari yasaladi. Uyinchoq – dekorativ sahnatning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra uyinchoqlarni assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. Uyinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi.

Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan materialda chet predmetlar, tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tayyorlash kerak, topilgan matni narsalar yasashga yaroqli yoki yo'qligini oldindan tekshirish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loy tarkibida qum ko'p bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sunhiy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilin har-xil oddiy va murakkab turlari bo'lib, retseptlari bor.

Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qushib, qulga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq buyoq massasi qushib va puxta aralashtirib buyash mumkin.

Uchunchi variant- 1 qism tuprog'ida 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qulga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qushib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qulda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va suhniy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Adabiyotlar:

1. P. Magzumov. "O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati". T. 1994 y.
2. X. Sanaqulov, M. Haydarov "Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar" 1996 yil.
3. R. A. Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O "Mehnat tahlil metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil.
4. Shumulevich N. M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T., "O'qituvchi" 1989 y.
5. Vorobg'yov A. S. H. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi" 1989 yil.
6. Mavlonova. R. A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 16-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000